

MANDALA AND MEANING: TYPOLOGY OF SYMBOLS AND STRATEGIES OF INTERPRETATION IN PATRICK WHITE'S NOVEL

Shokhida AKHMEDOVA

PhD student

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

MANDALA VA MA'NO: PATRIK UAYT ASARIDA SIMVOLLAR TIPOLOGIYASI VA TALQIN STRATEGIYASI

Shohida Akramjonovna AXMEDOVA

Doktorant (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

МАНДАЛА И СМЫСЛ: ТИПОЛОГИЯ СИМВОЛОВ И СТРАТЕГИИ ИНТЕРПЕТАЦИИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ПАТРИКА УАЙТА

Шохида АХМЕДОВА

Докторант (PhD)

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан alisherkamronbek@gmail.com <https://orcid.org/0009-0003-2278-6059>

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Axmedova Sh.A. Mandala va ma'no: Patrik Uayt asarida simvollar tipologiyasi va talqin strategiyasi. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 259-275.

<https://doi.org/10.36078/1762427219>

Received: August 29, 2025

Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Abstract. This article presents atypological analysis of symbols in the novel *The Solid Mandala* by Patrick White, a major representative of Australian literature and a Nobel Prize laureate. The main aim of the study is to distinguish between the universal and contextual types of symbols used in the novel, to reveal their aesthetic, philosophical, and psychological dimensions, and to interpret them within the framework of various theoretical approaches. In addition, the article highlights the scholarly significance of applying complex interdisciplinary methods to the study of symbolism in Australian literature. As a methodological basis, several approaches are combined: N. Frye's five phases of literary symbolism (literal, descriptive, formal, mythological, and anagogic) are applied to demonstrate the multilayered nature of symbols; C. Jung's archetypal psychology is used to analyze the mandala, quaternity, twin archetype, and individuation process; Y. Lotman's structural-semiotic model serves to explain oppositions, boundaries, intertextual relations, and the interpretation of the house as a spiritual space; finally, P. Ricoeur's hermeneutical conception is employed to consider the dual interpretation of symbols within the "hermeneutics of suspicion" and the "hermeneutics of faith." The results show that the key symbols of *The Solid Mandala*—the mandala, the circle, the twin brothers (Arthur and Waldo), the house, Terminus Road, manuscripts, books, and dance episodes — function simultaneously on personal and archetypal as well as contextual and universal levels. For Arthur, the marbles symbolise spiritual wholeness and compassion, while Waldo's manuscripts and books

signify his striving for intellectual perfection but ultimately represent spiritual emptiness. The central theme of the novel — the movement from duality to unity — is embodied through the oppositions of reason – emotion, speech – silence, and external order – inner meaning. The novelty of the article lies in the fact that Patrick White's symbols are analyzed typologically within several theoretical frameworks simultaneously, thereby demonstrating the importance of symbolism in Australian literature. Moreover, this approach may serve as a methodological model for deeper exploration of symbols in other national literatures.

Keywords: Patrick White; symbolism; typology; mandala; twins; duality; archetype; individuation; Australian literature.

Annotatsiya. Maqola Avstraliya adabiyotining yirik vakili, Nobel mukofoti sovrindori Patrik Uaytning “The Solid Mandala” (“Butun mandala”) romanida ramzlarning tipologik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, asardagi ramziy qatlamni ilmiy asosda ochib beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — romanda qo‘llangan simvollarning universal va kontekstual turlarini ajratish, ularning badiiy-estetik, falsafiy va psixologik xususiyatini ochish hamda turli nazariy qarashlar asosida talqin qilishdir. Shuningdek, maqola Avstraliya adabiyotida simvolizmni kompleks metodlar yordamida tahlil qilishning ilmiy ahamiyatini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Metodologik asos sifatida bir nechta yondashuv uyg‘unlashtirilgan: N. Freyning adabiy ramziylikning besh fazasi (literal, tavsifiy, rasmiy, mifologik, anagogik) orqali ramzlarning ko‘p qatlamli tabiati ochib berilgan. K. Yungning arxetipik psixologiyasi doirasida mandala, to‘rtlik, egizaklik va individuallashtirish jarayoni tahlil qilingan. Y. Lotmanning strukturaviy-semiotik modeli yordamida qarama-qarshiliklar, chegaralar, intertekstual aloqalar va uying ma’naviy makon sifatidagi talqini yoritilgan. P. Rikerning germevtik konsepsiyasi asosida esa ramzlarning “shubha germevtikasi” va “e’tiqod germevtikasi” doirasidagi ikki qutbli talqini ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Butun mandala”dagi asosiy ramzlar — mandala, doira, egizak aka-ukalar (Artur va Valdo), uy obrazi, Terminus Road, qo‘lyozmalar, kitoblar va raqs epizodlari — bir vaqtning o‘zida shaxsiy va arxetipik, kontekstual va universal ma’nolarda ishlaydi. Marmarlar Artur uchun ruhiy quvvat va mehr timsoli sifatida namoyon bo‘lsa, Valdoning qo‘lyozmalari va kitoblari intellektual mukammallikka intilish, ammo oxir-oqibat ma’naviy bo‘shliq ramzi sifatida talqin etiladi. Qarama-qarshiliklar (aql-his, nutq-sukunat, tashqi tartib-ichki ma’no) orqali duallikdan yaxlitlikka intilish g‘oyasi butun roman tuzilishida markaziy o‘rin egallagan. Maqolaning yangiligi shundaki, unda P. Uayt ijodi ramzlari bir vaqtning o‘zida bir nechta nazariy asoslar negizida tipologik tahlil qilingan va Avstraliya adabiyotida simvolizmning o‘rni ko‘rsatib berilgan. Ushbu tahlil shuningdek, boshqa milliy adabiyotlarda ham ramzlarni chuqurroq o‘rganish uchun metodologik namuna sifatida qo‘llanishi dalillangan.

Kalit so‘zlar: Patrik Uayt; ramzlar; tipologiya; mandala; egizaklik; duallik; arxetip; individuallashtirish; Avstraliya adabiyoti.

Аннотация. Статья посвящена типологическому анализу символов в романе Патрика Уайта «Твёрдая мандала», одного из крупнейших представителей австралийской литературы и лауреата Нобелевской премии. Основная цель исследования — выделить универсальные и контекстуальные типы символов, используемых в романе, раскрыть их художественно-эстетические, философские и психологические особенности, а

также интерпретировать их в рамках различных теоретических подходов. Кроме того, статья подчёркивает научное значение применения комплексных междисциплинарных методов для изучения символизма в австралийской литературе. В качестве методологической основы автор сочетает несколько направлений: пять фаз литературной символики Н. Фрая (буквальная, описательная, формальная, мифологическая и анагогическая) используются для демонстрации многослойной природы символов; архетипическая психология К. Юнга применяется для анализа мандалы, четверичности, архетипа близнецов и процесса индивидуации; структуралистско-семиотическая модель Ю. Лотмана объясняет оппозиции, границы, интертекстуальные связи и трактовку дома как духовного пространства; наконец, герменевтическая концепция П. Рикёра позволяет рассмотреть двойственную интерпретацию символов в рамках «герменевтики подозрения» и «герменевтики веры». Результаты исследования показывают, что ключевые символы романа «*Твёрдая мандала*» — мандала, круг, братья-близнецы (Артур и Уолдо), образ дома, улица Терминус, рукописи, книги и эпизоды танца — функционируют одновременно на личностном и архетипическом, а также на контекстуальном и универсальном уровнях. Для Артура мраморные шарики символизируют духовную целостность и милосердие, тогда как рукописи и книги Уолдо выражают стремление к интеллектуальному совершенству, но в итоге становятся символом духовной пустоты. Центральная тема романа — движение от дуальности к единству — воплощается через оппозиции разум – чувство, речь – молчание, внешний порядок – внутренний смысл. Новизна статьи заключается в том, что символы в творчестве П. Уайта анализируются типологически одновременно в нескольких теоретических парадигмах, что демонстрирует важность символизма в австралийской литературе. Более того, данный подход может служить методологическим образцом для более глубокого изучения символов и в других национальных литературах.

Ключевые слова: Патрик Уайт; типология; мандала; близнецы; дуальность; архетип; герменевтика; символы; индивидуация; австралийская литература.

Kirish

Avstraliyalik mashhur yozuvchi va shoir, Nobel mukofoti sohibi Patrik Uayt 1912–1990-yillar oralig‘ida yashab, ijod qilgan. Uning asarlari murakkab, ramziy va falsafiy bo‘lib, inson ruhiyati, yolg‘izlik, jamiyatdagi ziddiyatlar va ma’naviy izlanishlarni badiiy ifoda etadi. Uning asarlari “The Tree of Man” (1955), “Voss” (1957), “The Eyes of The Storm” (1973) kabilardir. P. Uaytning “The Solid Mandala” (1966) (“Butun mandala”) romani o‘zining simvollarga boyligi va asar bosh qahramonlari egizak aka-ukalar Valdo va Artur Braunlarning bir-biriga zid hayot yo‘li va ichki kechinmalari hikoyasi bilan e’tirofga sazovor. Asar voqealari XX asr o‘rtalarida Avstraliyada bo‘lib o‘tgan, unda ijtimoiy hodisalardan tortib, kundalik-maishiy buyumlargacha ramziy obrazlar sifatida *mukammallik, shaxs tushunchasi va ma’naviyat* mavzularini ifodalovchi vosita sifatida foydalanilgan. Tadqiqotchilar uzoq vaqt davomida P. Uaytning *mandala motivini* roman ma’nosining markaziy qismi sifatida

ta'kidlab kelishgan, chunki bu ramz turli qarama-qarshiliklar o'rtasida *bir butunlikka* intilishni ifodalaydi [Chapin 2020]. "The Solid Mandala" asari sarlavhasi "Butun mandala" deb tarjima qilindi, chunki ushbu nom o'zbek tilida *yaxlitlik, mustahkamlik, bir butunlik* kabi ma'nolarni anglatadi. Asar bosh qahramoni Arturning mandalalari ham aylana shaklidagi shisha marmarga o'xshash toshlar bo'lgan. Ular *bir butunlik, yaxlitlik, birlashish* kabi simbolik ma'nolarni anglatgan. Shuning uchun eng muqobil variant "Butun mandala" deb bildik. Ushbu tadqiqot davomida "*Butun Mandala*" asaridagi ramzlar tipologiyasini keng qamrovli tahlil qilib, asardagi simvollar ma'nosini ochish uchun bir nechta nazariy asoslardan foydalanildi. Jumladan, N. Freyning adabiy ramziylikning besh darajasi, K. Yungning arxetipik psixologiyasi (ayniqsa, mandala arxetipi), Y. Lotmanning strukturaviy semiotikasi, P. Rikerning ramzlarning germinetika nazariyasi kabilar kiradi. Ushbu qarashlarni umumlashtirgan holda, maqola asardagi simvollarining turlari va ularning tahliliga qaratilgan, universal va kontekstual simvollar, matn tuzilishidagi semiotik funksiyalar, psixologik/arxetipik jarangdorlik va madaniy yoki kontekstual ahamiyat farqlanadi. Romandagi tegishli parchalar va epizodlar har bir ramziy turga misol keltirish uchun tahlil qilinadi, bu esa P. Uaytning hikoyasi bir vaqtning o'zida bir nechta ramziy ma'nolarda qanday ishlashini ko'rsatadi.

"Butun Mandala" asaridagi ko'plab simvollar aka-uka Braunlarning Avstraliya chekkasidagi hayotining o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan bo'lib, ijtimoiy va madaniy jihatdan o'ziga xosliklarini aks ettiradi. Tadqiqot ilmiy jihatdan qiyosiy adabiyot, adabiyot nazariyasi va madaniyatshunoslik ilmlarining mutanosibligida P. Uaytning simvollarini mohirona qo'llash san'atini dunyo miqyosida tanilishiga hissa qo'shadi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu tadqiqot P. Uaytning "*Butun Mandala*" romanida ramzlarning tipologik tahlilini amalga oshirish uchun matn tahlili (textual analysis) usuliga tayangan. Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi qiyosiy va izohli (comparative va interpretative) tahlilga asoslanib, romandagi asosiy ramzlar va simbolik motivlar bir nechta nazariy qarashlar doirasida o'rganildi.

Kanadalik olim N. Freyning *simvollarining besh fazasi* nazariyasi (literal, tavsifiy, rasmiy, mifologik, anagogik) tadqiqot uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu model yordamida romandagi ramzlar birma-bir o'rganilib, ularning so'zma-so'z ma'nosi, matndagi obrazli vazifasi, mifologik asoslari va ilohiy-universal xususiyatlari farqlandi. K. Yungning arxetiplar nazariyasi asosida ramzlarning psixologik va arxetipik jihatlari tahlil qilindi. Xususan, mandala arxetipi, to'rtlik tuzilmasi, egizaklik motivi va individuallashtirish jarayoni ramzlarning chuqur psixologik qatlamlarini yoritishda qo'llanildi. Bu yondashuv orqali qahramonlarning ruhiy kechinmalari va ularning universal qirralari ochib berildi. Y. Lotmanning strukturaviy-semiotik modeli asosida matndagi belgilar tizimining o'zaro aloqasi, qarama-qarshiliklar va chegaraviy obrazlar tahlil qilindi. Semiologik yondashuv yordamida simvollar qanday qilib matn ichida yangi ma'no tarmoqlarini hosil qilishi va intertekstual munosabatlar orqali kengayishi ko'rsatildi. Rikerning germinetika konsepsiyasi tadqiqotning talqin bosqichida qo'llanilib, ramzlarning ikki qutbli talqini –

shubha germeneytikasi va *e'tiqod germeneytikasi* asosida tahlil qilindi. Bu orqali ramzlarning birlamchi (bevosita) va ikkilamchi (majoziy) ma'nolari ochib berildi.

Natijada ramzlarning tipologik, kontekstual va kompleks turlari har bir metod asosida alohida tahlil qilinib, keyinchalik taqqoslandi va yagona yaxlit tizimga birlashtirildi. Shu tariqa, tadqiqot metodlari ramzlarni turli nazariy qirralardan yoritishga, ularning ko'p qatlamli mohiyatini ochishga va P.Uayt simvolizmini interdisiplinar darajada talqin etishga imkon berdi.

Natijalar muhokamasi. P. Uaytning "*Butun Mandala*" asaridagi ramzlarni quyidagicha tasniflash mumkin: umumiy madaniyatlararo ramziylik yoki arxetipik manbalardan foydalanadigan *universal* ramzlar va faqat romanning o'ziga xos hikoya dunyosi va kontekstida ma'no kasb etadigan *kontekstual* ramzlar [Sharipova 2021]. Asardagi *doira* yoki *mandalani* asosiy universal simvolga misol qilib keltirish mumkin. *Aylana* ehtimol, eng universal ramzlardan biri bo'lib, odatda *yaxlitlik*, *abadiylik* va *birlikni* ifodalaydi. Turli diniy va adabiy an'analarda doira shaklidagi naqshlar (mandalalar, atirgul oynalari, labirintlar) bir tizimli aylana yoki tarqoq qismlarning birlashuvini ifodalaydi [Nirmal 2024]. Hind va budda dinlarida mandala ruhiyat va diqqatni jamlashga yordam beruvchi vosita hisoblanadi. Uning geometrik tuzilishi birlashtiruvchi markaz atrofidagi doirani kvadratlashga asoslangan. Mandala o'zining an'anaviy shaklida uchburchak, kvadrat va doirani ularning 3, 4 va 7 sonli muqobillari bilan yonma-yon qo'yadi [Barua 2006].

P. Uaytning romanida Artur va Valdo adabiyotda deyarli universal bo'lgan insonning ikki tomonlama tabiatini *tana* va *ruh*, *aql* va *his-tuyg'u* va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bunda aql va tana Valdo bo'lsa, ruh va his-tuyg'u Artur deya talqin qilish mumkin. Yuqoridagilardan farqli o'laroq, P.Uayt ma'nosi faqatgina "*Butun Mandala*" asari konteksti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ramzlarni ham yaratadi. Ularning ahamiyati faqat hikoya orqali ochiladi va deyarli tashqi ma'lumotga ega emas. Eng asosiy misol asar nomi "*Butun mandala*" bu aniq ma'noda Artur olib yuradigan to'rtta shisha marmar to'plamiga ishora qiladi. Artur nazdida bu oddiy marmarlar uning eng nozik his-tuyg'ulari va mehr-muhabbatining go'shasiga aylanadi. U har bir mandalani o'zi uchun ahamiyatli deb bilgan insonlarga bermoqchi bo'ladi. Ulardan biri Valdo edi, lekin Valdo buni rad etadi. Chunki u bu marmar toshlarni ahamiyatsiz deb biladi. Valdo uchun atalgan mandala toshini asar so'ngida Artur yo'qotib qo'yadi va bu hodisa ramziy ma'noda Valdoning o'limiga ishora deb bilishimiz mumkin. Boshqa mandalalarga kelsak, moviy rangdagisi Dulchiga beriladi. U sevgi, go'zallik ramzi edi. Oltin rangdagisi esa qo'shnisi Poulter xonimga beriladi. U esa mehr, yaxshilik ramzi. So'ngisi Arturning o'zida qoladi va bu mandalani yaxlitlik, bir butunlik ramzi sifatida talqin qilishimiz mumkin. Kitobxon ushbu mandalalarning simvolik ahamiyatini faqat roman o'qish davomida bilib olishi mumkin.

"*Mandala — yaxlitlik ramzi. U "xudoning maskani" deb e'tiqod qilinadi. Uning himoyalovchi doirasi ruhiy tartibsizlik ustiga o'rnatilgan tartib naqshidir. Ba'zan uning geometrik shakli ko'rinish (xoh uyg'oq holatda, xoh tushda) sifatida idrok etiladi*".

“The Mandala is a symbol of totality. It is believed to be the ‘dwelling of the god’. Its protective circle is a pattern of order super — imposed on — psychic — chaos. Sometimes its geometric form is seen as a vision (either waking or in a dream) or — ” [White 1966: 119].

Artur bu so‘zlarni Janob Ralf xonadonidagi ensiklopediyadan o‘qiydi va mandalaning ilohiy ahamiyatini tushunib yetadi. Ushbu parcha orqali yozuvchi marmar mandalaning asardagi ahamiyatini bevosita kitobxonga bildiradi.

Artur bitta marmarni chap cho‘ntagida *Valdoning mandalasi* sifatida alohida saqlaganida bir kun kelib uning sirini egizagi bilan baham ko‘rishga umid qilganida bu marmar ramziy ma’noda Valdoning butun qismini, Valdoning o‘zi anglay olmaydigan ilohiy qismini ifodalaydi.

“Agar yordam bersa, uni senga berardim, Valdo,” dedi Artur. Nuqtachali mandalani uzatarkan. Valdo bu nuqtalarni hech qachon birlashtirmasligini ich-ichidan sezib turardi. Hatto Valdo o‘zining ma’noli nigohlaridan birini tashlashidan oldin, bu nigoh shunday deya yotgandek edi: “Menga shisha munchoq taklif qilib, meni ahmoq qilib ko‘rsatmoqchisan. Men ahmoq emasman va hech qachon ahmoq bo‘lmayman, garchi sening egizak akang bo‘lsam ham. Shuning uchun mening javobim, Artur, ahmoqona emas, balki ahmoqona!” U baqirib yubordi: ‘Yo‘q, Artur! Ket, Artur!’ Ammo Artur joyidan qimirlamadi. Uning qo‘li muzdek munchoqni mahkam siqdi. Agar u egizak akasi bo‘lmaganida, Valdo undan nafratlanarmidi?

“If it would help I would give it to you, Waldo, to keep,” Arthur said. Offering the knotted mandala. While half sensing that Waldo would never untie the knot. Even before Waldo gave one of his looks, which, when interpreted, meant: By offering me a glass marble you are trying to make me look a fool, I am not, and never shall be a fool, though I am your twin brother, so my reply, Arthur, is not shit, but shit! As he shouted: “No, Arthur! Go, Arthur!” But Arthur was rooted. His hand closed on the icy marble. If he had not been his twin brother, would Waldo have hated him? [White 1966: 137]

Ushbu parchadan shuni anglash mumkinki, Artur egizak akasi uchun yaxshilikni xohlaydi, marmar tosh uni himoya qilishiga ishonadi, lekin Valdo buni rad etadi, ich-ichidan ukasining borligi uning muvaffaqiyatsizliklari sababi deb biladi. Marmar toshlardan ichki voqelik ramzi sifatida foydalanish bu roman kontekstida P.Uayt tomonidan ixtiro qilingan ramziy tizimdir. O‘quvchi kitobni o‘qimasdan ularning ma’nosini taxmin qila olmaydi.

Yana bir kontekstual belgi – *Valdoning qo‘lyozmasi va kitoblar to‘plami*. Bo‘lajak yozuvchi va kutubxonachi Valdo o‘ziga xoslik manbayi sifatida o‘z qo‘lyozmalariga va o‘zining kutubxonadagi kitoblariga bog‘lanib qoladi. Kitoblar bilim ramzi sifatida kelsa-da, bu romanda Valdoning adabiyotga bo‘lgan munosabati uning o‘ziga xos bilim va mukammallikka intilishining ramzidir.

Ammo Valdo buni keraksiz deb bildi. U she’rni yirtib tashladi. Artur kunning ikkinchi yarmida daraxtlar orasidan qaragan paytda, Valdoning qog‘oz to‘la qutisini chuqur tomon ko‘tarib ketayotganini ko‘rdi. Bu manzara unga akasi hali ham ularning yomon tortishuvidan azob

chekayotganini ko'rsatdi. Akasining qalbi vayronligi haqidagi fikr Arturga harakat qilishga yordam bermadi. Daraxtlar orasidan yonayotgan qog'ozlarning hidi kelardi. U atrofda guppillab, kuyayotgan qog'ozlarning tutun hidini hidlab turardi. Biroq u hech qanday ma'noda afsuslanmagan edi.

But Waldo made it unnecessary. Waldo was tearing the poem up. That his brother continued to suffer from the brutality of their revelation was evident to Arthur when, in the course of the afternoon, he looked through the trees and saw Waldo carrying his boxful of papers towards the pit. Knowing he had probably destroyed his brother did not help Arthur to act. Through the trees he could smell the burning papers. He stood around snivelling, sniffing the fumigatory smell of burning. But he was not in any way cleansed [White 1966: 148].

Ushbu parchada Valdoning qimmatbaho narsalari, kitoblari kulga aylanadigan dramatik tasvirni ko'ramiz. Artur akasidan xabar olish uchun xonasiga kiradi va noumid yotgan Valdoni ko'radi. Valdo hayotining so'nggi lahzalari ekanligini bilmay ukasini o'ldirishga qaror qiladi va afsuski o'zi vafot etadi. Yuqorida berilgan parchadagi qo'lyozmalar, kitoblarning yonib kul bo'lishini Valdo hayotining tugashi sifatida talqin qilish mumkin.

N.Freyning simvollarning besh fazalari nazariyasi "*Butun Mandala*" ramzlarida ma'no qatlamlarini ajratishning tizimli usulini taqdim etadi. Biz muayyan ramz yoki motivni olib, uni N.Freyning beshta darajasining har birida ko'rib chiqish mumkin. Literal (motiv), descriptive (belgi), formal (tasvir), mythical (arxetip) va anagogic (ilohiy) [Frye 1957: 90].

Literal faza (motiv): So'zma-so'z ma'noda, *butun mandala* jismoniy obyekt – Artur o'zi bilan olib yuradigan shisha marmar hisoblanadi. U hikoyada takrorlanuvchi *motiv* sifatida namoyon bo'ladi. Hikoyaning ko'p qismida Arturning o'z marmarlari bilan ishlayotganini yoki ularga ishora qilayotganini ko'ramiz. Tom ma'noda, bular syujetning realistik to'qimasining bir qismidir. Artur ularni bolaligida topib, saqlab qoldi, hatto bittasi Valdoga tegishli edi. Agar biz romanni faqat so'zma-so'z o'qisak, marmarlar faqat qahramonlarning kontekstda ular haqida nima deyishi yoki o'ylashini anglatadi. Artur uchun ular tasalli beruvchi obyektlar, Valdo uchun ular Arturning bolaligidan dalolat beradi. Motiv sifatida *mandala toshlari* romanning ichki estetik tuzilishiga joziba qo'shadi.

Tasviriy bosqich (belgi): Marmarni butunlik yoki yaxlitlik tushunchasiga ishora qiluvchi belgi sifatida ko'rish mumkin. N. Freyning tasviriy fazasi tashqariga yo'naltirilgan belgisini anglatadi, ya'ni ramzning ma'nosi kontekst ichidan anglashilmaydi [Frye, 1957; 91.]. Artur marmarni yaxlitlik g'oyasi bilan bog'laydi. Mandalalar haqida bilib olgandan so'ng, u obyekt qandaydir tarzda *to'liq bo'lish sifatini... bir butunlikni* o'zida mujassam etadi, deb hisoblaydi. Shunday qilib, marmar mavhum to'liqlik tushunchasini anglatadi. Xuddi qizil xoch belgisi *shifoxona yoki yordam* degan ma'noni anglatgani kabi, Arturning marmari romanning ramziy lug'atida *butunlik* degan ma'noni anglatadi.

U imkon qadar kutubxonaning o'qish xonasida o'tirganda, qo'lida bu marmar mandalani ushlab turardi. Chunki Kitoblar uning ikkinchi

ehtirosiga aylandi. Qanchalik kech bo'lmasin, ongining eng xira burchaklariga ham hujum qilish uchun. Shunday qilib, u mustahkam mandalani aylantirgan holda o'tirar, so'zlarni bir-biriga qo'shib, ko'plab, balki barcha ma'no muqobillarini yaratardi. To'g'ri, umidsizlik onlarida ezilgan o't-o'lanlar va o'zining dukillayotgan yuragi uni ko'proq ishontirar edi.

This solid mandala he held in his hand as he sat, whenever possible, in the reading room at the Library. For the Books became his second obsession. To storm his way, however late, however dark the obscurer corners of his mind. So he sat twirling the solid mandala, and by shuffling the words together, he made many if not all of the permutations of sense. Admittedly, in flashes of desperation, crushed grass and his own palpitating lump of flesh convinced him more [White 1966: 141].

Ushbu parchada marmar toshlarning ahamiyatini Arturning xatti-harakatlari orqali ko'rishimiz mumkin. U kutubxonada so'zlarni o'ylab, marmar mandala aylantirganda, go'yo bu buyum unga fikrlashga yordam berayotgandek, bu tartibsizlikni anglash, tarqoq fikrlarni bir tizimga solish kabi. Shunday qilib, tasviriy darajada aytish mumkinki, mustahkam mandala Arturning hayot tarzi yoki mazmuni haqidagi tasavvurini ifodalaydi. Xuddi shunday, boshqa ramzlar kengroq g'oyalarning belgisi bo'lib xizmat qiladi.

Rasmiy bosqich (Tasvir): Ushbu darajada N. Frey ramzlarni asarning umumiy obrazli va tematik tuzilishining bir qismi bo'lgan *tasvirlar* sifatida tilga oladi. Bu yerda biz marmarni matndan tashqaridagi qanday tushunchaga ishora qilish uchun emas, balki matnning tasvirlar, ohanglar va mavzular tarmog'ida qanday aks-sado berishini ko'rib chiqamiz [Frye 1957: 99].

Mifologik fazadagi ramzlar ushbu bitta matndan tashqaridagi arxetiplar va takrorlanuvchi miflarga bog'lanadi. Bu yerdagi mustahkam mandala mifologiyada uchraydigan dunyoviy mandala arxetipining yoki kosmik jism namunasi sifatida qaralishi mumkin. Shuningdek, bu darajada Artur va Valdoning egizakligi mifda uchraydigan arxetipik egizak aka-ukalarni eslatadi (shumer-vavilonlik Enten va Emesh, Vedik Ashvinlar yoki Bibliyadagi Isav va Yoqub kabi) bu yerda biri ko'pincha ruhiy-samoviy, ikkinchisi esa yerdagi-moddiy. Artur va Valdo ushbu arxetipga muayyan darajada mos kelib, ularning hikoyasini duallik haqidagi afsonaviy tuzilmaning zamonaviylashtirilgan turiga aylantirdi. Roman voqealarini yirik arxetipik syujetlarga ko'chirish mumkin. Masalan, Arturning hayotida folklorda mavjud bo'lgan *dono ahmoq* yoki *muqaddas begunoh* arxetipining aks-sadosi mavjud, bu arxetipik rol hisoblanadi. Valdoning trayektoriyasi muvaffaqiyatsiz rassom yoki Ikar arxetipini eslatishi mumkin. Uning mag'rurligi va intellektual takabburligi qulashga olib keladi. Shunday qilib, marmar nafaqat yagona tasvir, balki yaxlitlikning arxetipik ramzidir. Shuni ta'kidlash joizki, N. Freyning afsonaviy bosqichi janrlar qo'shilishi bilan ham bog'liq. Mustahkam Mandala afsonaviy modernizm janrida ishtirok etadi [Ganpatrao 2014]. Mandala kabi arxetipik ramzlarning mavjudligi ikki oddiy avstraliyalik haqidagi hikoyani afsonaviy darajaga ko'tarishga yordam beradi,

o'quvchilar uni alohida emas, balki universal insoniy holatning sharhi sifatida tan olishlari mumkin.

Nihoyat, N. Freyning *anagogik fazadagi ramzlar mandalalar* barcha insonlar uchun umumiy bo'lgan narsalar, ma'naviy voqelik yoki ilohiy olamining obrazlari sifatida qaraladi [Denham, 2000]. Bu yerda yaxlit mandala yakuniy birlik ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Romanning ilohiy tarafdin tahlili uni deyarli muqaddas kitob yoki sof afsona sifatida talqin qilinadi. "Butun Mandala"da anagogik mosliklar qanday bo'ladi? Ehtimol, Artur va Valdo birgalikda umumiy inson qalbini ifodalashi mumkin, ularning yakuniy birlashishi garchi bu Valdoning Arturning qo'lida o'limini o'z ichiga olsa ham, ramziy ma'noda ikki tarafning birlashishi o'ziga xos mistik birlashma bo'lishi mumkin. Ular saqlab kelgan mandalani insonlar izlayotgan ilohiy butunlikning tasviri sifatida ko'rish mumkin. Darhaqiqat, yakunda Artur jinnixonaga tushadi, lekin xotirjamlik hissi bilan, ehtimol, u izlagan yaxlitlik tashqi dunyo parchalanganida ham ichkarida amalga oshganini nazarda tutadi. Ushbu darajadagi mandala ramzi mavjudlik yoki ilohiy haqiqatning yaxlitligi, butunlikka ishora qiladi [Frye 1957: 95].

"Butun Mandala"da simvollarni turli ma'no beruvchi belgilar tizimi sifatida tahlil qilamiz. Y. Lotmanning ta'kidlashicha, badiiy matnda ma'no elementlar o'rtasidagi munosabatlar va qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi [Lotman 1977: 98]. Buni P. Uaytning romaniga qo'llash ramzlarning bir-biriga nisbatan qanday joylashishini, hikoya ichida ma'nolar tarmog'ini yaratish va ular madaniy yoki mafkuraviy mazmunini qanday tahlil qilishni ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

"Butun Mandala" asosan markaziy duallik atrofida tuzilgan. Artur va Valdo. Romanning ramziy manzarasining deyarli har bir jihatini ushbu ikkilik maydoniga joylashtirish mumkin. Semiotik nuqtayi nazardan, Artur va Valdo qarama-qarshiliklar to'plamini ifodalovchi juftlikni ifodalaydi. Hissiyot va aql, hissiy samimiylilik va hissiy yopiqlik, ijodkorlik va tahliliy aql, inklyuzivlik va eksklyuzivlik, ma'naviy e'tiqod va shubha kabi qarama-qarshiliklar. Bu qarama-qarshiliklar shunchaki xarakter xususiyatlarini emas, balki hikoyadagi aniq motivlar orqali ramziylashtirilgan. Masalan, *Arturning to'rtta marmari* va *Valdoning kitoblar hamda qo'lyozmalar to'plami* bir ramziy qarama-qarshilikdir. Hikoyada semiotik jihatdan Valdo marmarlarning jozibasini tushunmasdan, ularni ahmoqlik deb hisoblaydi, bu Artur ma'noli deb hisoblagan mandalani o'qiy olmasligini ko'rsatadi. Ya'ni Valdo tom ma'noda tushunadi, Artur esa ilohiy, simvolik ma'nolarni tushunadi. Y. Lotmanning so'zlariga ko'ra, *matnda ko'pincha to'qnashuvlar, turli semiotik dunyolarning (tillarning yoki belgilarning) to'qnashuvi mavjud* [Lotman 1977: 295]. Yana bir strukturaviy qarama-qarshilik bu *nutq va sukunat*. Valdo ko'p gapiradi, Artur esa ko'pincha jim turadi yoki oddiy, samimiy iboralar bilan gapiradi. Bu bilan bog'liq ramzlar orasida Valdoning *lug'ati va qalami* va Arturning *qo'shiq va raqsi*.

Asarda Sarsaparilla ichida *Terminus Road* deb nomlangan joy keltirilgan bo'lib, bu Braunlar yashaydigan joydir. Bu tom ma'noda shahar atrofining oxiri bo'lib, uning ortida, ehtimol, o'zlashtirilmagan yerlar yoki shahar chekkasi joylashgan bo'lishi mumkin. Simvolik jihatdan esa

Terminus chegaraning oxirini bildiradi. Madaniy semiotik atamalarda, Y. Lotman fikriga ko'ra, chegara bu ma'no o'zgarish joyidir (boshqa bilan muloqot chegarasi) mumkin bo'lgan joy [Lotman 1977: 224]. Artur va Valdo ijtimoiy chegarada ham mavjud, ular ijtimoiy hayotga to'liq integratsiyalashmagan, biroz izolyatsiyalangan bo'yodoqlar. Artur yahudiy qo'shnisi Dulchi va quyi tabaqa qo'shnisi Poulter xonim bilan do'stlashib, sinfiy va madaniy chegaralarni kesib o'tadi. Valdo esa yuqori madaniyat bilan aralashishga intiladi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Ular birga yashagan uy yana bir simbol: ichki tarafdin bo'lingan, lekin ularda alohida bo'shliqlar mavjud. Shunday bo'lsa-da, ularning ikki qarama-qarshi, lekin birgalikda kechirgan hayot tarzini aks ettiruvchi yagona birlikdir. Biz uyni *ruhiyatning ramzi* sifatida talqin qilish mumkin. British Kolumbiya universiteti tadqiqotchisi Syuzan esa P. Uayt asarlaridagi jismlarning jonli hayoti haqida izlanish olib borgan va "Butun mandala" asaridagi uy obrazini Valdo uchun bo'g'uvchi makon, Artur uchun esa ichki hotirjamlik makoni sifatida talqin qiladi [Whaley 1987: 193]. Bundan tashqari asarda Valdo oldinda — intellektual shaxs sifatida va Artur jismonan kuchli bo'lsa-da, orqada, yashirin intuitiv shaxs sifatida gavdalanadi. Darhaqiqat, Valdo jamoat kutubxonasida va Artur esa asosan uyda yoki maishiy topshiriqlar bilan ishlaydi.

Y. Lotman yondashuvi, shuningdek, *takrorlanish va parallellikka* e'tibor qaratadi. P. Uayt ikki aka-uka o'rtasida parallel ravishda ko'plab sahnalarni tuzadi. Misol uchun, roman shunday bo'linganki, birinchi bo'limi "Waldo" Valdoning nuqtayi nazarini, boshqasi "Arthur" esa Arturning ko'plab bir xil voqealarga nuqtayi nazarini beradi. Bu ikki tomonlama hikoyaning o'zi simbolik ma'noga ega bo'lgan tuzilishni, ya'ni muayyan voqealar takrorlanish va qarama-qarshilik orqali ramziy ma'no kasb etadi.

Y. Lotmanning semiotikasi, shuningdek, matnlar madaniy kontekst tufayli ma'noga ega bo'lgan ramzlarni nazarda tutadi. "*Butun Mandala*" intertekstual havolalar va madaniy ramzlarga boy. Valdo adabiyotchi bo'lgani uchun doimo ichida WordsWorth kabi shoirlarga yoki Hardy kabi romannavislarga murojaat qiladi. Bunday murojaatlar uning yuksak madaniyatga intilishi ramzidir. Qizig'i shundaki, Artur hech qanday ilmiy bilimga ega bo'lmasa-da, din va mifning madaniy belgilari bilan bog'lanadi. U rus adabiyotini o'qishga qiziqish bildiradi, Dostoyevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" asari — Arturning o'ziga xos g'oyalariga o'xshash bo'lgan chuqur e'tiqod, shubha va ilohni izlash haqidagi roman [Nirmal 2024: 225]. Ushbu intertekstual vositalar yanada boy semiotik maydonni yaratadi. *Karamazovlar* qarama-qarshi tabiatli aka-ukalar bo'lib, Alyosha rohib va Ivan ratsionalist, ya'ni Artur va Valdoning aniq analogi hisoblanadi.

"*Butun Mandala*" simbolizmining arxetipik va psixologik o'lchami K. Yung nazariyalari va tegishli arxetipik tanqid orqali keng ochib berilishi mumkin. P. Uaytning romani *mandala arxetipini* aniq tilga olishi va qarama-qarshi ruhiy tendensiyalarni ifodalovchi egizak qahramonlarga e'tibor qaratishi bilan K. Yung talqinini talab etadi.

K. Yunglar psixologiyasida *mandala* (sanskritcha "doira") *Men* timsoli — yaxlitlik arxetipi va psixikani tashkil etuvchi markazi

hisoblanadi. Mandalalar ko‘pincha tushda yoki san’atda insonning ruhiyati muvozanatga intilganda yoki o‘zgarishga uchraganda paydo bo‘ladi. K. Yungning ta’kidlashicha, mandalalar odatda to‘rtlik (to‘rtlik tuzilma) — o‘zlikning to‘rtta yo‘nalishi, elementlari yoki jihatlarini ifodalovchi va yagona doira ichidagi qarama-qarshiliklar muvozanatini o‘z ichiga oladi [Jung 1964: 210]. “Butun Mandala” asarida Arturning marmarlarida mandala mavjudligi so‘zma-so‘z ifodalangan, ammo ularni psixologik jihatdan talqin qiladigan bo‘lsak, har bir marmar va to‘rtlik to‘plami birgalikda Arturning ichki kechinmalarini anglatadi. Artur marmarlarning yaxlitligi o‘ziga tortadi. Butun roman davomida Artur K. Yungning individuallashtirish harakati deb ataydigan g‘oyani namoyish etadi [Jung 1964: 12]. U g‘oyaning turli qismlarini (sevgi, bilim, ishonch, shubha) mazmunli yaxlitlikka birlashtirishga intiladi. Artur kutubxonada mandalani aylantirib o‘tirganida va so‘zlarni bir-biriga aralashtirib, u ma’noning ko‘plab o‘rin almashtirishlarini amalga oshirganida, bu tartibsiz fikrlarni tartibli naqshga joylashtirishga urinayotgan ruhiyatning tasviri mohiyatan, ma’noning shaxsiy mandalasi yaratayotgan ongdir. K. Yungning yozishicha, *haqiqiy mandala har doim ichki tasvirdir... ruhiy muvozanat buzilgan paytlarda faol tasavvur orqali yaratilgan* [Jung 1964: 290].

Bundan tashqari, Arturning dramatik raqsini K. Yung tilida *mandala marosimi* sifatida talqin qilish mumkin. K. Yung ba’zi bemorlar yoki shaxslar *raqs* ongsiz ravishda mandala naqshlarini chizishini kuzatgan. Hikoyada Arturning *to‘rt burchakli mandala raqsi* Poulter xonim hovlisida aniq shakl bilan uning yaxlitlikka bo‘lgan ichki intilishining yorqin tashqi ifodasidir [Jewell 2005: 36]:

Shunday qilib, Artur Braun raqsga tushdi. U birinchi burchakdan boshlab, to‘rtinchi burchakkacha va undan ham nariroq bosqichma-bosqich harakatlanardi. Bu bahaybat, qo‘pol gavdali odam tog‘ yonbag‘rida, maymunjonlar o‘sgan joyda o‘ziga xos harakatlanish uslubini topgandi. Uning ko‘ylak yenglarining tugmalari bilaklarida yechilgan holda osilib turardi. Terisining kamroq quyosh tegadigan joylaridagi, bilaklaridagi va ko‘kraklari orasidagi ko‘kimtir soyalar tez orada marvaridday yaltiraydigan ter bilan qoplandi.

So Arthur Brown danced, beginning at the first corner, from which he would proceed by stages to the fourth, and beyond. He who was so large, so shamby, found movement coming to him on the hillside in the bay of blackberries. The bands of his shirtsleeves were hanging open at the wrists. The bluish shadows in the less exposed parts of his skin, of his wrists, and the valley between his breasts, were soon pearled over [White 1966: 133].

Ushbu parchadagi raqsning har bir harakati u sevgan odamga mos keladi, ya’ni ramziy ma’noda hayotning turli qirralarini ifodalaydi. Poulter xonimdagi onalik sevgisi, Dulchi Faynshteyndagi romantik sevgi, Valdodagi birodarlik sevgisi va ehtimol markazda Arturning o‘zi [Nirmal 2024]. Bundan tashqari, K. Yung asarida Arturga mos keladigan *Ilohiy bola* yoki *Muqaddas ahmoq* arxetipini keltirilgan. Ko‘pgina madaniyatlarda donolik yoki najot tashuvchisi bo‘lgan beg‘ubor begunoh odam obrazi mavjud. Masalan, Grayl afsonasidagi Parsifal, William

Faulknerning “The Sound and the Fury” (1929) asaridagi oiladagi barcha muammo va fojialarni teran his qiluvchi aqlan zaif bola obrazi, “Forrest Gump” (1986) romanidagi qalbi toza, lekin boshqalar uchun ahmoq bo‘lgan Forrest va boshqalar. Artur Braun o‘zining bolalarcha soddaligi bilan, *ahmoq* deb masxara qilingan, ammo kuchli muhabbat va idrokka ega bo‘lganligi bilan *muqaddas ahmoq* arxetipga mos keladi.

P. Riker simvollarni birlamchi to‘g‘ri ma’noga va faqat talqin orqali tushunish mumkin bo‘lgan ikkilamchi ko‘chma ma’noga ega deb ta’riflagan [Ricoeur 2010]. Valdo o‘ziga xos muvaffaqiyatsiz talqinchi, u doimo dunyoni bilishga intiladi. Artur intuitiv talqinchi, u odamlar va vaziyatlarni ichki sezgi bilan his qiladi. Ular o‘rtasidagi ziddiyatni ikki germevntik yondashuv o‘rtasidagi ziddiyat sifatida ko‘rish mumkin. Ya’ni *shubha germevntikasi* (Valdo) va *e’tiqod germevntikasi* (Artur). Riker bu ikki qutb haqida gapirar ekan, *shubha* yashirin yoki yolg‘on kuchni fosh qilish uchun ramzlarni ifodalash va yashirin ma’noni ochish uchun ramzlarni tiklash kabi g‘oyalarni ilgari suradi [Bologna & Trede 2020]. Romanda Valdo adabiyotni o‘zini anglash uchun o‘qiydi. Natija Valdoning ma’naviy bo‘shlig‘i va Arturning ma’naviy qoniqishiga aylanadi.

Germevntikaning yana bir jihati — ramzlarning mavhum talqini hisoblanadi. P. Riker ramzning yakuniy to‘liq talqini yo‘qligini ta’kidlab o‘tadi [Ricoeur 2010]. “Butun *Mandala*” ayrim simvollarni noaniqlik uchun ochiq qoldiradi. Bunga yorqin misol Valdoning o‘limi sababidir. Artur uni tasodifan o‘ldirganmi yoki Valdo shunchaki qo‘rquvdan yoki yurak xurujidan o‘lganmi, bu biroz noaniq. Romanda bu ayanchli holat oshkor izohlamaydi, uni o‘quvchilar uchun talqin qilish muammosi o‘ziga xos *germevntik jumboq* sifatida qoldiradi.

1-jadval

Simvollarning tipologik tahlili

Simvollar	Tipologik turi	Asosiy talqin	Nazariy asos
Mandala / marmar toshlar	Universal va kontekstual	Yaxlitlik, birlik, ruhiy tartib; Arturning mehr va e’tiqodi; Valdo uchun – ahamiyatsiz bolalik qoldig‘i	N. Frey (5 faza), K. Yung (arxetip), Riker (germevntika)
Egizaklar (Arthur–Waldo)	Arxetipik	Dualizm: aql–his, nutq–sukunat, tashqi tartib–ichki ma’no; insonning ikki qirradi	K. Yung (egizak arxetipi), Lotman (qarama-qarshiliklar)
Uy	Kontekstual	Ichki ruhiyat ramzi: Waldo uchun – iztirob makoni;	Lotman (madaniy semiotika), Whaley

		Arthur uchun – osoyishtalik va soddalik	(uy ramzi tadqiqi)
Terminus Road	Kontekstual / madaniy	Chegara ramzi; ijtimoiy izolyatsiya va o'tish makoni	Lotman (chegara tushunchasi)
Valdo qo'lyozmalari va kitoblari	Kontekstual	Bilim, intellektual mukammallikka intilish, ammo pirovardida mag'lubiyat va bo'shliq	Frey (literal/rasmiy), Riker (shubha hermenevtikasi)
Artur raqsi (to'rt burchakli)	Arxetipik va kontekstual	Mandala marosimi; hayotning turli qirralarini ifoda etuvchi ramziy harakat	Yung (mandala, to'rtlik arxetipi)
Doira shakli	Universal	Abadiylik, yaxlitlik, kosmik tartib	Yung (Men arxetipi), diniy ramziylik
Yorug'lik va shisha obrazlari	Simvolik/estetik	Ruhiy nur va mo'rtlik; Waldo intellektining shishadek sinuvchanligi	Frey (rasmiy), Lotman (tasvirlar tizimi)
Nutq va sukunat	Kontekstual / semiotik	Waldo – nutq (tahlil), Arthur – sukunat (samimiyat va his)	Lotman (oppozitsiyalar), Riker (talqin farqi)
Dostoyevskiy interteksti (Karamazovlar)	Intertekstual	Ivan–Alyosha analogiyasi: Waldo–Arthur dualligi; ratsionalizm va e'tiqod qarama-qarshiligi	Lotman (intertekst), Yung (arxetipik egizaklar)
Valdoning kitoblarni yoqishi	Kontekstual / dramatik	Ma'naviy inqiroz va ichki bo'shliq ramzi; yaratuvchi intilishining yo'qolishi	Frey (deskriptiv/rasmiy), Riker (hermenevtika)

Muhokama. “*Butun Mandala*”dagi ramzlar bir vaqtning oʻzida talqin qilishning bir nechta darajalarida ishlaydi. N. Freyning tuzilmasi shuni koʻrsatdiki, bitta ramz, Arturning *marmar toshi* bir vaqtning oʻzida hikoyadagi bevosita obyektga, mavhum gʻoyalarga, yaʼni yaxlitlik, birlikka ishora qiluvchi belgi, afsonaviy arxetip va hatto maʼnaviy yaxlitlikning ilohiy ramzi hisoblanadi. Oʻquvchilar va tanqidchilar uchun bu nima uchun turli talqinlar matnda oʻz oʻrnini topishini tasdiqlaydi. Ramzlar koʻp maʼnolarga ega boʻlish uchun yaratilgan. Masalan, baʼzi tanqidchilar “*Butun Mandala*”ni Masih obrazi va maʼnaviy yaxlitlikka eʼtibor qaratgan holda diniy masal sifatida oʻqishgan boʻlsa, boshqalari uni bir shaxsning ikki xil tomonini psixologik misoli sifatida oʻqishgan. P. Uaytning oʻzi ham uning asarlarining zahirida diniy maqsad yotishini taʼkidlagan, u yaratgan zodga ishonishini va ilohiy kuchning inson zotiga taʼsiri borligini aytgan [Singh 2021: 53]. Diniy, psixologik va badiiy maʼnolarga toʻla *mandala* kabi atamani ongli ravishda qoʻllash P. Uaytning keng koʻlamli maʼnolarni nazarda tutganidan dalolat beradi. Bu koʻp qatlamli usul P. Uayt uslubining oʻziga xos xususiyati boʻlib, simvolik murakkablik postmodernistik hikoya uslubiga mos keladi.

K. Yung va Y. Lotman tahlillari orqali maʼlum boʻldiki, “*Butun Mandala*”ning umumiy mavzusi qarama-qarshiliklarni birlashtirishdir va bu mavzu romanning ramzlari, qahramonlari va tuzilishida mujassamlashgan. Artur va Valdo bir-biriga qarama-qarshi obrazlar boʻlib, ular birgalikda oʻziga xos yaxlit shaxsni tashkil qiladi. Roman muhokamasi shakl va mazmun bir-birini qanchalik murakkab tarzda aks ettirishini eʼtibordan chetda qoldira olmaydi. P. Uayt oʻz hikoyasining markaziga duallikni qoʻyadi (ikki qahramon, ikki nuqtayi nazar), soʻngra ramziylik orqali birlikka erishish istagi va qiyinchilikni oʻrganadi.

Riker germeneytikasi bilan tahlil qilib, “*Butun Mandala*” nafaqat ramzlarni oʻz ichiga olishini, balki ramzlarni talqin qilish harakatini ham tematiklashtirishini koʻramiz. Valdo va Artur oʻrtasidagi qarama-qarshilikni ikki xil tahlil strategiyasi yoki maʼnoga boʻlgan munosabatni ifodalash uchun kengaytirish mumkin. Valdo ramziy maʼnoni payqamaydigan yoki eʼtiborsiz qoldiradigan skeptik oʻquvchiga oʻxshaydi, Artur esa narsalardagi ikkinchi, majoziy maʼnosini idrok etadigan ideal oʻquvchiga oʻxshaydi. Kengroq maʼnoda, “*Butun Mandala*” oddiy hikoya yetkaza olmaydigan mavzularni yetkazish uchun adabiy ramziylikning kuchli taʼsiriga misol boʻlib xizmat qiladi. Romanning asosiy muammolari rahm-shafqatga boʻlgan ehtiyoj, boshqa odamni tushunish azobi va zavqi, birinchi navbatda, uning ramzlari va oʻquvchining ular bilan oʻzaro munosabati orqali yetkaziladi. Yozuvchi oʻzining ramzlar va metaforalar uygʻunligi, murakkabligi, adabiy vositalar va mandalalarining jumboqliligi ortida nisbatan sodda xarakter tuygʻusini yashiradi [Herring 1970: 22]. P. Uayt ziddiyatdagi ikki aka-uka haqida realistik hikoya yozishi va koʻproq toʻgʻridan-toʻgʻri sharhlar kiritishi mumkin edi, lekin buning oʻrniga u *mandala* kabi ramzlar tasviriga urgʻu berdi.

Muhokama yakunida “*Butun Mandala*” asarida simvollar tipologiyasi oliyjanob insoniylikdan tortib, tor va biqiq vaziyatlar ifodasigacha oʻzgarib turadi. Ushbu integrativ tahlil shuni koʻrsatadiki, bunday asarni qadrlash uchun ham tahliliy aniqlik, ham ruhiy hamdardlik

talab etiladi.

Xulosa

P. Uaytning *“Butun Mandala”* asari simvolizmning mohirona kashfiyoti bo‘lib, egizak aka-ukalar haqidagi oddiy ertakni universal ma’no va shaxsiy kontekstning boy to‘qimasiga aylantiradi. Ushbu keng qamrovli tahlil orqali romanning bir qarashda ahamiyatsiz ko‘ringan elementlari — shisha marmarlar to‘plami, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan raqs, janjalkash aka-ukalar juftligi kabilarning bir nechta qatlamli talqinga egaligini ko‘rib chiqdik. Ular so‘zma-so‘z, majoziy, shaxsiy, arxetipik, strukturaviy va ma’naviy kabilardir.

N. Frey modeli simvollarning bir nechta turli tabiatini ochib berdi. So‘zma-so‘z darajada hikoya motivlari hikoyani realizmga asoslaydi, tavsifiy va rasmiy darajalarda bu motivlar duallik, sevgi va ma’no izlash mavzularini aks ettiruvchi belgilar va tasvirlarga aylanadi. Mifik va ilohiy darajalarda *“Butun Mandala”* ramzlari abadiy arxetiplarga mos keladi. K. Yungning arxetipik psixologiyasi yana shuni ko‘rsatdiki, roman individuallashtirish jarayonini qayta jonlantiradi. Artur *donishmand ahmoq* va Valdo *xudbin ego* bir shaxsiyatning qarama-qarshi tomonlarini ifodalaydi, *mandala* ramzi va tegishli tasvirlar (yorug‘lik, doira, to‘rtlik) bu qarama-qarshiliklarni birlashtirishga intilayotgan yarashtiruvchi ramz bo‘lib xizmat qiladi.

Y. Lotmanning tarkibiy semiotikasi P. Uayt simvolizmining ichki mantig‘i va dizaynini ta’kidlaydi. Roman binar qarama-qarshiliklar atrofida qurilgan bo‘lib, nafaqat personajlarda, balki ramziy klasterlarda o‘zaro ta’siri o‘ziga xos ma’no yaratadi. P. Rikerning germevtik nazariyasi talqin qilish muhimligini tasdiqladi. Roman ramzlari bir necha ma’noga ega bo‘lib, unga faqat murakkab tahlil orqali erishish mumkin.

Ilmiy jihatdan, ushbu tahlil adabiy ramziylikka fanlararo yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi. Har bir nazariy asos nafaqat *“Butun Mandala”* ning o‘ziga xos jihatlarini ochib berdi, balki boshqalari bilan ham muloqot qildi, natijada yaxlit talqin yuzaga keldi. Masalan, Freyning tuzilmaviy ramziyligi va K. Yung arxetiplari birgalikda romanning o‘lim va qayta tug‘ilish naqshini ham adabiy, ham psixologik jihatdan tushuntiradi. Adabiyotshunoslik uchun *“Butun Mandala”* misoli ramzlar shunchaki bezak vositalari emas, balki hikoyada ma’noning asosiy vositalari ekanligini tasdiqlaydi. P. Uaytning romanini ramziy yo‘naltirilgan deb ta’riflash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, *“Butun Mandala”* asari ushbu tadqiqotdan ajoyib ramziy tuzilma sifatida kelib chiqadi. P. Uayt ramzlar tipologiyasidan kontekstual, shaxsiy ramzlardan arxetipik, universal ramzlargacha o‘z asarining mazmuniy asosi sifatida foydalanadi. Artur va Valdo Braunning hikoyasi, birgalikda bir butun narsani tashkil etuvchi ikki xil inson haqida gapiradi. Oxir-oqibat, *“Butun Mandala”*dagi ramzlar tipologiyasi badiiy matnning mandala kabi qanday ishlashini ko‘rsatadi. Bizning tahlillarimiz roman ramzlariga besh nazariy yo‘nalish bo‘yicha yondashib, qaysidir ma’noda bilimlarning mandala singari integratsiyasini amalga oshirdi — adabiy tanqid, psixoanaliz, semiotika, germevtika va tipologiyani yagona talqin ko‘rinishiga birlashtirdi. *“Butun Mandala”* asari ramzlar orqali ma’no yaratishning chuqur o‘rganilishi, adabiyotning inson

tajribasini san'atkorona, tizimli ramziylik orqali mohiyatni anglash qudratining isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar/ References

- Bologna, R., Trede, F., & Patton, N. (2020). A critical imaginal hermeneutics approach to explore unconscious influences on professional practices: A Ricoeur and Jung partnership. *The Qualitative Report*.
- Chapin, C. (2020, November 23). *What is the primary motif in The Solid Mandala, and how does it reflect the Australian diaspora?* eNotes Editorial. <https://www.enotes.com/topics/solid-mandala/questions/what-is-the-primary-motif-in-the-solid-mandala-2186250>
- Denham, R. D. (n.d.). *Northrop Frye & critical method*. McMaster University. <https://macblog.mcmaster.ca/fryeblog/critical-method/theory-of-symbols>
- Frye, N. (1957). *Anatomy of criticism*. Princeton University Press.
- Ganpatrao Jadhav, S. (2014). Mythical modernism in Patrick White's *The Solid Mandala* and *Riders in the Chariot*. *Indian Streams Research Journal*. <https://oldisrj.lbp.world/ColorArticles/5855.pdf>
- Gorny, E. (2024, July 20). *Semiotics today*. Semiovox. <https://www.semiovox.com/articles/2024/07/20/eugene-gorny>
- Itao, A. D. S. (2010). Paul Ricoeur's hermeneutics of symbols: A critical dialectic of suspicion and faith. *Kritike*, 4(2), 1–17. https://www.kritike.org/journal/issue_8/itao_december2010.pdf
- Jung, C. G. (1964). *Man and his symbols*. J. G. Ferguson Publishing.
- Lotman, Y. (1977). *The structure of the artistic text* (G. Lenhoff & R. Vroon, Trans.). University of Michigan.
- Nirmal, A. (2024). Recognition of the self through mandala: Concentricity in Patrick White's *The Solid Mandala*. *IIS University Journal of Arts*, 13(4), 219–232. <https://iisjoa.org/sites/default/files/iisjoa/October%202024/19th%20Paper.pdf>
- Sharipova, D. S. (2021). *Linguocultural Features of Symbol and Metaphor*. *International Journal on Integrated Education*. Volume 4, Issue 10, Oct 2021, 149–154. <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>
- White, P. (1966). *The Solid Mandala*. Eyre & Spottiswoode.
- Whaley, S. J. (1987). *Still life: The life of things in the fiction of Patrick White* (Order No. NL40061) [Doctoral dissertation, University of British Columbia]. ProQuest Dissertations & Theses Global. <https://www.proquest.com/dissertations-theses/still-life-things-fiction-patrick-white/docview/251683184/se-2>
<https://www.australianliterarystudies.com.au/articles/patrick-white-misconceptions-about-jungs-influence>
- Singh, A. (2021). *The Thematic Symbols in Patrick White's The Solid Mandala*. *Research Journal of English Language and Literature (RJELAL)*. Vol.9. Issue.S1. p-53. <http://www.rjelal.com/9.S1.21/52-54%20Dr.%20Amar%20Singh.pdf>
- Barua, K. (2006). *The Androgyne: The ambiguity of existence in Patrick White's The Solid Mandala and The Twyborn Affair*. *Consciousness*,

Literature and the Arts. Volume 7, Number 3.

<https://www.dmd27.org/barua.html>

Herring, Thelma. (1970). *Self and Shadow: The Quest for Totality in The Solid Mandala* in Ten Essays on Patrick White Selectedpom Southerly(1964-1967). Edited by G.A.Wilkes. Sydney and London: Angus and Robertson.

Jewell, M. (2005). *Terpsichorean Moments in Patrick White's The Solid Mandala and Hal Porter's The Tilted Cross*. JASAL 4. UNIVERSITY OF WESTERN SYDNEY.

<https://openjournals.library.sydney.edu.au/index.php/JASAL/article/view/9689/9577>